

2. Ali, H. (2024). *Islamic microfinance: landscape, models and future prospects*. Walter de Gruyter GmbH & Co KG.
3. Ali, N., & Abdul Rahman, R. (2013). Financing the poor, sustaining the provider: Issue on transaction cost in microfinance program. *Middle-East Journal of Scientific Research*, 18(4), 512-516.
4. Alrashedi, M. Y., & Mohammed, M. O. (2021, November). Developing social financial resources model for Islamic microfinance to reduce unemployment rate. In *International conference on business and technology* (pp. 925-943). Cham: Springer International Publishing.
5. Amran, A. M., Mohamed, I. S., Yusuf, S. N. S., & Rozzani, N. (2019). Financial and social performances of Islamic microfinance service provider with mobile banking. *International Journal of Financial Research*, 10(5), 181-190.
6. Azman, N. H. N., Zabri, M. Z. M., & Kepili, E. I. Z. (2021). Nexus between Islamic microfinancing and financial wellbeing of micro entrepreneurs during the covid-19 pandemic in Malaysia. *Jurnal Ekonomi Malaysia*, 55(1), 135-146.
7. Khairunnisa, S., Muzayanah, I. F. U., & Kasri, R. A. (2019). Impact of islamic microfinance on quality of life: Maqasid Al-Shariah approach. In *Challenges of the global economy: Some Indonesian issues* (pp. 205-227). Nova Science Publishers, Inc.
8. Khan, A., Zaidi, S. B., Mahmood, A., & Khan, S. (2024). Achieving Social Well-Being and Financial Inclusion Through Islamic Microfinance: A Case Study of Akhuwat Islamic Microfinance. In *The Future of Islamic Finance: From Shari'ah Law to Fintech* (pp. 83-102). Emerald Publishing Limited.
9. Redzuan, N. H., Kassim, S., Rosman, R., Muhammad Zuki, M. F., & Shaharuddin, S. S. (2023). Potential of Islamic Microfinance: Issues, Challenges, and Way Forward. In *Islamic Sustainable Finance, Law and Innovation: Opportunities and Challenges* (pp. 157-166). Cham: Springer Nature Switzerland.
10. Siti-Nabiha, A. K., & Norfarah, N. (2020). Performance of Islamic microfinance institutions: accounting for well-being. *Global Journal Al-Thaqafah*, 10(2), 38-46.
11. Tursunov A.S. Islomiy mikromoliyalashda “Vaqf” xayriya jamoat fondining faoliyatini rivojlantirish yo’llari. Monografiya. T.: “Lesson Press”, MCHJ nashriyoti 2023 – 194 b.

O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ISLOM IQTISODIYOTI VOSITALARI ORQALI AMALGA OSHIRILGAN INVESTITSION LOYIHALAR TAHLILI

Irgasheva Gulbahor Sodiqovna
Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti,

Jahon miqyosida umumiy aktivlari miqdori 5 trln AQSH dollaridan oshishi kutilayotgan islom moliyasi, pandemiya tufayli paydo bo’lgan to’siqlarga qaramay, hukumatlarning qo’llab-quvvatlovchi siyosati hamda islom moliya

mahsulotlarga bo'lgan yuqori talab o'laroq ularning moliya bozorlaridagi ishtiroki chuqurlashdi va islom moliya tarmog'i barcha jabhalarda kengayishda davom etmoqda. Ushbu globallashtirish sharoitida zamonaviy moliya tizimi yangi vositalarni joriy etish asosida milliy moliya bozorlarini diversifikatsiya qilish va hududlarda islomiy investitsiyalarni jalb qilishni talab etadi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng ko'p aholiga ega davlat bo'lib, doimiy aholisi 37 mln kishidan ortiqni tashkil etadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, mamlakat aholisining 90 foizi musulmonlar hisoblanadi va shu e'tiqodi tufayli ham mamlakat aholisining 15-20 foiziga yaqini an'anaviy kreditlash tizimidan foydalanmaydi, shuning uchun ham jismoniy va yuridik shaxslar o'zlarining naqd pul oqimlarini, daromadlarini oshirish va qo'llab-quvvatlash uchun yetarlicha moliyalashtirishga ega emas. Mamlakatda kichik va o'rta bizneslarni qo'llab-quvvatlash, ayniqsa muhimdir, chunki mamlakat iqtisodiyotining 70 foizini, ish bilan ta'minlashning esa 78 foizini kichik va o'rta bizneslar tashkil etadi.

O'zbekistondagi kichik va o'rta bizneslar so'nggi yillarda ikki raqamli o'sishga qaramay, moliyalash uchun juda cheklangan imkoniyatlarga ega. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining tadqiqotiga ko'ra, O'zbekistondagi kichik va o'rta bizneslarning 80 foizi o'z investitsiyalarini ichki mablag'lar orqali moliyalashtiradi, faqatgina har to'rtinchisi bankdan kredit oladi. Ko'p holatlarda o'rta va kichik bizneslar o'zlarini moliyalashtirish uchun shaxsiy jamg'armalaridan, qarindosh, do'stlari va biznes hamkorlaridan qarz olishga majbur bo'lmoqdalar.

Bundagi eng samarali yechim mamlakatda islom moliyasini joriy etish va uning imkoniyatlaridan foydalanishdir. Shu sababdan ham, islom moliya sohasiga doir ishlar Islom taraqqiyot banki (ITB) va uning guruhi tarkibiga kiruvchi Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha islom korporatsiyasi (XSRIK) va Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi (XISMK) tomonidan olib borilib, shuningdek O'zbekiston banklari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-dekabrda 596-son qarori bilan O'zbekiston XSRIK a'zo bo'lib, 2006-yildan boshlab esa, mahalliy tijorat banklari va tadbirkorlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Ular asosan, tijorat banklariga murobaha moliyalashtirish usuli orqali moliyalashtirish liniyalari ajratilgan. Bugungi kungacha XSRIK mamlakatdagi 15 ta mahalliy tijorat banklari va 2 ta lizing kompaniyasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan.

ITBning 46 yillik yig'ilishida O'zbekiston Respublikasida islom banki va moliya sohasining huquqiy asoslarini ishlab chiqish va uni qo'llab-quvvatlash maqsadida 265 ming AQSH dollari miqdorida ITB tomonidan texnik yordam uchun grant ajratilishi belgilandi. Shuningdek, 2020-yil oxiriga kelib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida islomiy moliyaviy xizmatlarni joriy etish uchun huquqiy baza yaratish vaqti kelganini ta'kidlagan edilar. Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-dekabrda "Iqtisodiyotga islomiy investitsiyalarni jalb etish to'g'risida"gi qarori loyihasini ishlab chiqishga oid farmoyishi e'lon

qilinib, islomiy moliyalashtirish tizimining huquqiy bazasini yaratish bo'yicha keng ko'lamli sa'y-harakatlar boshlandi.

Bugungi kunga kelib, *O'zbekiston bilan ITB guruhi o'rtasidagi ma'qullangan loyihalarning umumiy qiymati 3,9 mlrd AQSH dollarini tashkil etadi. Shundan 2,4 mlrd AQSH dollaridan ortig'i ITBga, qolgan mablag'lar esa ITB guruhiga kiruvchi uchta tashkilotlarga tegishlidir.* ITB O'zbekiston hududlariga investitsiyalar jalb qilib, ko'plab loyihalarni amalga oshirmoqda va bu loyihalarning barchasi aholining turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan.

1-jadval

Islom taraqqiyot banki bilan birgalikda amalga oshirish taklif etilayotgan istiqbolli investitsiya loyihalar va qarorlar

(mln dollar)

№	Qaror va loyihaning nomi	Hudud nomi	Tasdiqlangan yili	Loyihaning umumiy qiymati (mln AQSH dollari)	ITB tomonidan moliyalashtiriladigan summa (mln AQSH dollari)
1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4201-sonli qarori doirasida "Obod qishloq" dasturi doirasida qishloqlarda suv ta'minoti, yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash.	Xorazm viloyati, QQR	2019	200.0	200.0
2.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-dekabrda 1057-sonli qarori asosida "Ixtisoslashtirilgan kardiologiya yordami ko'rsatuvchi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya markazini va uning muassasalarini tibbiyot asbob-uskunalarini bilan jihozlash".	Toshkent shahri	2019	32.0	25.0
3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-apreldagi PQ-4295-son qarori asosida "Ixtisoslashtirilgan endokrinologiya yordami ko'rsatuvchi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va uning muassasalarini jihozlash".	Toshkent shahri	2019	20.0	15.7
4.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2910-sonli qarori asosida "Suvni tozalaydigan inshoot bilan "Tupalang-Termiz" mintaqalararo suv quvurlarini qurish".	Surxondaryo viloyati	2019	187.5	150.0
5.	Transport vazirligi taklifiga ko'ra, "M-39 Toshkent-Termiz avtomobil yo'lining ikki uchastkasini (21 km) qurish va rekonstruksiya qilish" 1395 — 1400 km va 1410 — 1426 km uchastkalarda sement- beton qoplamali 4 polosali avtomobil yo'li qurish va rekonstruksiya qilish.	Toshkent shahri, Surxondaryo viloyati	2019	29.6	29.6

5.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-martdagi PQ-2313-son qarori asosida "1037 — 1081 km uchastkada M-39 "Olmaota-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz- Termiz" avtomobil yo'lini rekonstruksiya qilish".	Toshkent shahri, Qashqadaryo viloyati Surxondaryo viloyati	2019	105.6	88.0
6.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-martdagi PQ-2313-son qarori asosida ""Taxtaqarachi" dovoni orqali tunnel qurgan holda 1410 — 1426 km va 1395 — 1400 km uchastkada M39 "Olmaota-Toshkent-Shahrisabz-Termiz" avtomobil yo'lini rekonstruksiya qilish".	Toshkent shahri, Qashqadaryo viloyati Surxondaryo viloyati	2019	46.0	42.0
7.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-apreldagi PQ-2866-son qarori asosida "Respublika onkologiya xizmati muassasalarini zamonaviy yuqori texnologik uskunalar bilan jihozlash".	Toshkent shahri	2020	90.0	67.0
8.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-martdagi PQ-2313-son qarori asosida "1444 — 1622 km uchastkada M-41 "Bishkek-Dushanbe-Termiz" avtomobil yo'lini rekonstruksiya qilish".	Surxondaryo viloyati	2020	392.0	356.0
9.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4201-sonli qarori asosida ""Obod qishloq" dasturi doirasida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida suv ta'minoti, yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash".	Qashqadaryo viloyati, Surxondaryo viloyat	2020	200.0	200.0
11	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2910-sonli qarori asosida "Kogon tumani suv ta'minotini yaxshilash" aholini sifatli ichimlik suv bilan ta'minlash, 113 km suv quvurini yotqizish.	Buxoro viloyati	2021	71,9	57,5
12	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-martdagi PQ-2313-son qarori asosida "581 — 698 km uchastkada A-380 "G'uzor-Buxoro-Nukus-Beynov" avtomobil yo'lini rekonstruksiya qilish"	Qashqadaryo viloyati, Buxoro viloyati, Surxondaryo viloyat	2021	257,0	234,0
2019 — 2021-yillar uchun JAMI				1631,6	1464,8

ITB tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar, asosan qishloqlardagi aholining yashash sharoitlarini yaxshilash qaratilib, xususan, aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash, yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yilning 28-martida Islom taraqqiyot banki ishtirokida "Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish" (2-bosqich) loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-141-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra, quyidagilar belgilab olindi:

-O'zbekiston Respublikasi va ITB o'rtasida "Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish" (2-bosqich) bo'yicha qarz ajratilishi to'g'risidagi qaror 2022-yil 31-

dekabrda ITB Direktorlar Kengashi tomonidan ma'qullanganligi hamda moliyalashtirish maqsadida 2023-yil 26-aprelda 5 yillik imtiyozli davrni o'z ichiga oluvchi 20 yil muddatga 260 million AQSh dollari miqdorida Hadli kelishuv va Agentlik kelishuvi imzolandi;

-Ushbu loyihaning umumiy qiymati 293,5 million AQSh dollariga teng bo'lib, shundan O'zbekistonning ulushi 33,5 million AQSh dollarini tashkil etishi;

-Loyiha Qashqadaryo, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarining 21 ta tumanidagi 157 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida amalga oshirilib, ushbu loyihani amalga oshirish davri 5 yilni ya'ni 2024-yildan 2028-yilgacha bo'lgan davrda amalga oshirilishi belgilandi.

Xulosa sifatida quyidagilarni keltirish mumkinki, hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda islom iqtisodiyoti tamoyillari asosida investitsiyalarni jalb qilish juda muhim. O'zbekistonda islomiy investitsiyalarga nafaqat davlat loyihalariga shu bilan birgalikda, biznes sektori va aholi tomonidan ham katta talab mavjud. Shunday ekan, musulmon davlatlaridagi faoliyati islomiy moliyalashtirishga asoslangan mavjud banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalar mablag'larini O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash maqsadida jalb etish ayni muddaodir. Buning uchun esa, albatta, milliy bank tizimiga yangicha yondashuv bilan nazar solmoq lozim, ya'ni an'anaviy moliyalashtirish mexanizmlari bilan bir qatorda islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi tadqiq etilishi muhim va dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://www.google.com/search>

2. United States Department of State, '2021 Report on International Religious Freedom: Uzbekistan' (US Department of State, 2 June 2022), <https://www.state.gov/reports/2021-report-on-international-religious-freedom/Uzbekistan> accessed 31 March 2023.

3. J.Imamnazarov.; Landscaping analysis of Islamic finance instruments in Uzbekistan.; analytical paper.

4. Lex.uz ma'lumotlari bazasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA ISLOM MOLİYASINING AHAMIYATI VA DAVLATIMIZDA ISLOM MOLİYASINING INKLYUZIVLIK DARAJASI

Ilyosov Asrorjon

Farg'ona politexnika instituti, i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Mahammadova Noilaxon

Farg'ona politexnika instituti, 63-24 Iqtisodiyot guruhi talabasi.

Bugungi kunda shuni bilishimiz mumkinki O'zbekistonda islom moliyasiga qiziqish ortib bormoqda chunki O'zbekiston aholisining qariyb 93 % foiz qismini musulmonlar tashkil etadi. O'zbekiston avvaldan islom dinining markazlaridan biri bo'lgani hammamizga ayon, lekin shunday bo'lishiga qaramasdan bizning